

INGLIZ TILIDA XARAKTERNI IFODALOVCHI PAREMALAR SEMANTIKASI


Normamatova Farida Choriyevna, Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

СЕМАНТИКА ПАРЕМИЙ, ВЫРАЖАЮЩИХ ХАРАКТЕР В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Нормаматова Фариди Чориевна, магистрант Термезского университета экономики и сервиса

SEMANTICS OF CHARACTER-EXPRESSING PARAMETERS IN ENGLISH

Normamatova Farida Choriyevna, Master's student of Termez University of Economics and Service



<https://orcid.org/0009-0006-2493-6710>

e-mail:

farida.normamatova@mail.ru

Annotatsiya: Maqollarda, har doim e'tiborga olinishi kerak bo'lgan, ularni oddiy gaplardan farqlash uchun sof lingvistik xususiyatlar mavjud. Maqollar qisqacha ifodalangan gaplardir. Jamiyatning to'plangan hayotiy tajribasining siqilgan shakli vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada ingliz tilida xarakterni ifodalovchi paremlar semantikasi qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, o'zbek tili, maqollar, paremlar, lingvistik xususiyatlar, didaktika.

Abstract: Proverbs always possess distinct linguistic features that set them apart from ordinary sayings, and these should be taken into account. Proverbs are concise expressions that represent an expanded form of a society's accumulated life. This article presents a comparative analysis of the semantics of phraseological units in the English language.

Keywords: English language, Uzbek language, proverbs, paremlas, linguistic features, didactics.

Аннотация: Пословицы всегда имеют чисто языковые особенности, отличающие их от обычных поговорок, которые следует учитывать. Пословицы — это краткие высказывания, которые представляют собой развернутую форму накопленного жизненного опыта общества. В статье проводится сравнительный анализ семантики фразеологизмов в английском языке.

Ключевые слова: английский язык, узбекский язык, пословицы, паремы, языковые особенности, дидактика.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION). Semantika so'z va gaplarning ma'nosini o'rganadigan tilshunoslik bo'limlaridan biri. U lingvistik shakllarning nolingvistik tushunchalar va aqliy tasavvurlarga bo'lgan munosabatidan jummalarni ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan qanday tushunishini tushuntirish uchun foydalanadi. Semantikasi odamlar muloqot qilganda va eng muhimi bir-birini tushunganda sodir bo'ladigan "sehr" deb hisoblaymiz. Misol uchun, badiiy asardan ma'no

yaratish uchun siz obyektiv tasvirni dunyo haqidagi bilimingiz bilan birlashtirishingiz kerak. So'zlarni kontekstda ko'rib chiqish orqali ma'no va xabarni tushunish mumkin.

Maqollar odatda an'anaviy, ixcham, rang-barang, formulali, aforistik, ko'pincha majoziy va axloqiy mazmunga tegishli bo'lib, jamiyatning g'oya yoki tuyg'uga yaxlit nuqtayi nazarini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Hozirgi kunda paremiologik

birliklarning semantikasini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. O'zbek olimlaridan P.Bakirov o'zbek, qozoq va rus tillaridagi maqollar semantikasini o'rgangan[4]. Olima O.Uralova Ingliz va o'zbek tillarida "oila" bosh leksemali maqollarning semantik tahlilini amalga oshirgan[3].

Paremlar semantikasi o'zining obrazlilik xususiyati va estetik qadriyatlariga ko'ra maqollarda uslubiy og'ishning muhim turini ifodalaydi. Bunday uslubiy vositalar ushbu maqollarning mazmunini tinglovchilarga yanada jozibador qiladi va ular mazmunining ishonitirish ta'sirini maksimal darajada oshiradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ingliz tilida quyidagi xarakterni ifodalovchi ingliz paremlarini tahlilga tordik:

When wealth is lost, nothing is lost when health is lost, something is lost, when character is lost, all is lost (Boyluk yo'qolsa hech narsa yo'qolmaydi, sog'lik yo'qolsa biror narsa yo'qoladi; xarakter yo'qolsa, hamma narsa yo'qoladi). Nafaqat ingliz xalqida, balki barcha xalqlarda insonning xakteri uning hayotida katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolda u kishining boyligidan ko'ra fe'l-atvori va salomatligi muhimroq ekanini bildiradi. Bu paremaning mantiqiy davomi sifatida quyidagi qarashlarni keltirish mumkin. Ingliz sotsiumida agar insonda xarakter bo'lsa, obro'-e'tibor o'z-o'zidan uning izidan yuradi, degan fikrlar mavjud. Obro' muhim, ammo xarakter har doim yo'lni boshqaradi. *If you take care of your character, your reputation will take care of itself* (Agar siz o'zingizning xakteringizga g'amxo'rlik qilsangiz, obro'yingiz o'z-o'zidan sizga g'amxo'rlik qiladi). Bunday qarashlar o'zbek xalqida ham uchraydi: Yaxshi bo'lsang, yetarsan murodga, yomon bo'lsang, qolarsan uyatga. *Three things show a man's character: his drinking, his pocket, and his anger* (Erkakning xakterini uchta narsa ko'rsatadi: ichkilikka munosabati, cho'ntagi va g'azabi).

Character is what we are, reputation is what others think we are (Xakter – biz kimligimiz, obro' – bu boshqalar bizni qanday deb o'ylashlari). O'zingizning obro'yingizdan ko'ra xakteringizga ko'proq e'tibor bering, chunki sizning xakteringiz siz haqiqatda qanday ekanligingiz, obro'yingiz esa boshqalar sizni shunday deb o'ylashi[1]. *Ability will enable a man to get to the top, but character will keep him from falling* (Qobiliyat odamga cho'qqiga

chiqishga imkon beradi, ammo xakter uni yiqilishdan saqlaydi). Insonning fe'li, xakteri uni ko'pgina musibatlardan saqlashi yuqoridagi paremada o'z isbotini topgan.

Insonning xakteri uning mulki hisoblanadi. Ko'pchiligimiz "egalik qilmoq" va "ega bo'lmoq" jumllarini chalkashtirib yuboramiz va ularni sinonim sifatida ishlatamiz. Biroq, qonunda bu ikkala atama ham bir-biridan farq qiladigan aniq huquqiy ta'riflarga ega. *Man's only real possession is his character* (Insonning yagona haqiqiy mulki uning xakteridir).

Ba'zan farovonlik, o'ziga to'qlik inson xulq-atvorining buzilishiga olib keladi. *Character is always corrupted by prosperity* (Xakter har doim farovonlik bilan buziladi). *A people's legends reveal its character more clearly than its acts and events* (Xalq afsonalari uning xatti-harakati va voqealaridan ko'ra xakterini aniqroq ochib beradi)[2]. *Like a fence, character cannot be strengthened by whitewash* (Devor kabi xakterni oqlash bilan mustahkamlash mumkin emas). Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, ushbu ingliz paremasi ko'proq erkaklarga qaratilgan. Erkakning fe'l-atvori panjaraga o'xshaydi. Uni oqlash bilan mustahkamlab bo'lmaydi, xuddi devorni oqlash bilan mustahkamlab bo'lmaganidek.

Ingliz paremlari qanday qizga uylanish haqida ogohlantiradi. *Don't look at the shape — look at the character* (Qomatiga qarama, xakteriga qara). Erkak kishi uylanayotganda faqat qizlarning tashqi korinishiga emas, balki uning ichki dunyosi hamda xakteriga qarab uylanish zarurdir. Tashqi ko'rinish ko'pincha aldamchidir. *A man of character is resistant to temptation* (Yaxshi xulqli inson aldovga qarshi bo'ladi). Ma'lumki, xulq-atvori yaxshi, xakteri yaxshi odam ijobiy xislatlarga to'la bo'ladi, maqolning ma'nosi shuki, yaxshi xulqli inson vasvasaga yo'l qo'ymaydi, aldovga qarshi kurashadi[3]. Qadimgi xitoy maqoliga ko'ra, "Otning kuchini masofa sinovdan o'tkazganidek, vaqt ham insonning samimiyligini ko'rsatadi". Bu maqol Yuan sulolasi davrida anonim muallif tomonidan yozilgan "Mehribonlikni qaytarish uchun kurash" pyesasining birinchi qismidan olingan. Inglizlarda ham xuddi shunday maqolni uchratishimiz mumkin. Insonning xakterini oz fursatda bilib bo'lmaydi. Kimningdir xakterini bilish uzoq vatq talab etadi. *Distance tests a horse's strength; time reveals a mans character* (Masofa

otning kuchini tekshiradi, vaqt insonning xarakterini ochib beradi). *Character is easier kept than recovered* (Xarakterni tuzatishdan ko'ra uni saqlab qolish muhimroqdir). Inglizlar insonning xarakterini, fe'l-atvorini ular uchun hech narsa qila olmaydigan odamlarga qanday munosabatda bo'lishlariga qarab osongina baholash mumkin deb hisoblashadi. *One can easily judge the character of a person by the way they treat people who can do nothing for them* (Insonning fe'l-atvorini ular uchun hech narsa qila olmaydigan odamlarga qanday munosabatda bo'lishlariga qarab osongina baholash mumkin). Insonlar ustidan kulishga moyil shaxslar, masxara qiladigan odamlar doimo qoralanadi. Bunday paytlarda insonning qanday fe'l-atfarga ega ekanligini bilish mumkinligi haqida quyidagi maqolda ifodalangan: *People show their character by what they laugh at* (Odamlar o'z fe'l-atvorini nimadir ustidan kulishi bilan ko'rsatadilar). Paremada aytilishicha, odamlar o'zlarining fe'l-atvorini qanday kulishlari bilan ko'rsatishadi[5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Insonning xarakterini belgilashda qalbning pok bo'lishi katta ahamiyatga ega. Poklik, tozalik degan so'zlarning lug'aviy ma'nosi barchamizga ma'lum. Ular hech qanday kir, zarar va shu kabi salbiy ta'sirlar aralashmagan holat yoki narsani anglatadi. Toza suv deganda rangi, hidi, ta'mi o'zgarmagan suv tushunilsa, pokiza libos deganda toza, yuvilgan, dog'tegmagan kiyim tushuniladi va hokazo. Bularning barchasi moddiy tozalikdir. Ammo, ma'naviy poklik ham borki, bu poklik insonning ichki dunyosida, qalbida, ruhida bo'ladi. Demak, uning moddiy pokligi ham ma'naviy poklikdan kelib chiqadi. Shuning uchun poklik deganda faqat moddiy yoki faqat ma'naviy poklikni keskin ajratib bo'lmaydi. Insonning ichki pokligi uning xulqida ham muhim rol o'ynashi quyidagi ingliz maqolida ham ifodalangan: *If there is righteousness in the heart, there will be beauty in character* (Qalbdagi solihlik bo'lsa, xulqda go'zallik bo'ladi). Birinchidan, qalbdagi solihlik o'z fe'l-atvorini shakllantirishga hissa qo'shadi va pirovardida uning fe'l-atvoriga go'zallik qo'shadi. Atrofdagi va oiladagi uyg'unlik uchun insonning xakteri muhim ahamiyatga ega[2].

Ba'zan odamlarning xulq-atvorida, xarakterida gen (irsiylik) rol o'ynaydi, degan qarashlar bor,

ammo quyidagi ingliz paremasi bu fikrlarning mutloq aksini ko'rsatadi: *Blood is inherited, character is earned* (Qon irsiydir, xarakter orttiriluvchi). Ya'ni, insonning xarakterida uning avlodini ayblash no'tog'ri, yaxshi insonlardan ba'zida yomon farzandlar tug'ilishi, yaxshi otalardan esa, yomon farzandlar tug'ulishi mumkin. Ota-onalar o'z genlari orqali farzandlariga ko'z rangi va qon guruhi kabi xususiyatlarni o'tkazadilar, lekin ularning xulq-atvorlarini emas.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqollarning o'rganilishi nafaqat o'zbek millatining, balki boshqa xalqlarning ham boy tarixini ko'rsatish bilan birga, milliy madaniyatini ham o'zida namoyon qiladi. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o'rganilgan. Xalq maqollari faqat badiiy asar matnida emas, publitsistik, memuar asarlar matnida ham, ommabop uslubda ham qo'llanadi. Bunday uslubda ham maqolning o'ziga xos badiiy-estetik vazifasi namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdullayeva N.E. Ingliz va o'zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. dokt. (PhD) dis. avtoref. – Toshkent, 2019. – 52 b.
2. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 341 b.
3. Uralova O. Inliz va o'zbek tillarida "oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va sturukturasi. Filol. fan. dokt. (PhD) dis. – Samarqand. 2021. – 235. b.
4. Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разнотелственных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 286 с.
5. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учеб. пособие для пед. ин-тов. – М.: Высш. шк., 1983. – 267 с.